“AKADEMIK FAN VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY SEMINAR

2019-yil 12-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti (Dubna, Rossiya) Axborot texnologiyalari laboratoriyasi yetakchi olimlari va Markaziy Osiya tadqiqot va ta’lim tarmog‘i (CAREN) vakillari ishtirokida **“Akademik fan va zamonaviy axborot texnologiyalari”** mavzusida ilmiy-amaliy seminar o‘tkazildi.

Ushbu seminar ilm-fan va ta’lim sohasida axborot texnologiyalaridan amaliy foydalanish hamda asosiy ma’lumotlar bazasini yaratish, yirik ma’lumotlarni (Big Data) qayta ishlash va boshqarish masalalariga bag‘ishlandi.

“Bishlashgan yadro tadqiqotlari instituti dunyoda eng mashhur ilmiy markaz bo‘lib, O‘zbekiston olimlari bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalariga ega. Bugungi seminardan ko‘zlangan asosiy maqsad, rossiyalik va qirg‘izistonlik olimlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, olimlarimizni, yosh tadqiqotchilarimizni, talabalarimizni aynan ilm-fanda axborot texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari hamda afzalliklari bilan kengroq tanishtirishdan iborat”, - deydi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Mirzayev.

Shuningdek, seminar ishtirokchilari yuqori tezlikdagi aloqa tizimi sifatida CARENning atrof-muhitni o‘rganishga oid tadqiqotlar, seysmologiya, telemeditsina, tabiiy va madaniy merosni asrash kabi sohalarda

birgalikdagi izlanishlarni rivojlantirish borasidagi faoliyati bilan ham tanishdilar.

Avvallambor, ushbu seminarni tashkil etganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Bexzod Yuldashevga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. Bu seminar o‘zbek olimlari bilan hamkorlik aloqalarining yangi bosqichiga zamin yaratishiga ishonaman, – dedi Qirg‘iziston Respublikasi Milliy Fanlar akademiyasi akademigi A.Kutanov (CAREN).

Seminar yakunida ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini va texnologik salohiyatni oshirish, shuningdek, fan, texnika, iqtisodiyotda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari bo‘yicha fikr almashildi.